

## ASOSIY KO'RSATKICHLAR

- Savdolarning umumiy hajmi 481,20 mlrd so'mni (37,13 mln dollar) tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 452,88 mlrd so'mga yoki 1 599% ga o'sdi. Bunda, 19,61 mlrd so'm (1,51 mln dollar) yoki tuzilgan bitimlar hajmining 4,07 foizi birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlar hissasiga to'g'ri keldi. Hajmning qolgan qismi listingdan tashqari savdo maydonchasi (LTSM)dagi bitimlarga to'g'ri keldi.
- Birja savdo maydonchalarida tuzilgan bitimlarning umumiy soni 50 227 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 6 220 taga yoki 11,02 foizga kamaydi. Bunda, Birjaning birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan 43 915 ta bitim, listingdan tashqari savdo maydonchasida esa 6 312 ta bitim amalga oshirilgan.
- Oy yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 2,18 foizga pasayib, 640,87 punkt darajasida yopildi.
- Oy yakuniga ko'ra, aksiyalar bozorining kapitallashuvi 5,14 trillion so'mga yoki 2,12 foizga kamayib, 237,28 trillion so'mni (18,31 milliard AQSH dollari) tashkil etdi.
- Yanvar oyi yakunida birja kotirovkalash varag'ida 96 ta emitentning 146 ta instrumenti mavjud edi. Oy davomida birja kotirovkalash varag'iga 3 ta emitentning 4 ta instrumenti kiritildi: 1 ta imtiyozli va 3 ta oddiy aksiyalar.

## BOZOR SHARHI

Oy yakuni bo'yicha birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan 19,61 mlrd so'mlik (43 915 ta) bitimlar tuzildi. O'rtacha kunlik savdo hajmi 891,20 million so'mni (69 ming dollar), o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 1 996 tani tashkil etdi.

### AKSIYA BOZORI

Aksiyalar bozoridagi savdo hajmi 16,10 milliard so'mni (1,24 million dollar) tashkil etdi. 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan savdo hajmi 7,36 milliard so'mga yoki 31,38 foizga kamaydi. Bunda, asosiy savdo hajmi (8,49 milliard so'm) muzokarali hisob-kitoblar maydonchasiga (Nego Board) to'g'ri keldi.

Oy yakunlariga ko'ra, aksiyalar bozorining kapitallashuvi 5,14 trillion so'mga yoki 2,12 foizga kamayib, 237,28 trillion so'mni (18,31 milliard dollar) tashkil etdi, erkin muomalada bo'lgan (free float) aksiyalarning bozor kapitallashuvi esa 4,35 trillion so'mni tashkil etdi.

Oy oxirida Birjaning kotirovka varaqasida 92 ta emitentning aksiyalari mavjud edi.

### Aksiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari

		2021	2022	2023	2024	2025
Savdo hajmi	mln so'm	17 299	3 036 086	685 959	23 465	16 101
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	865	151 804	32 665	1 067	738
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	mln so'm	6	400	44	0,5	0,4
Bitimlar soni	dona	3 014	7 598	15 630	49 425	43 610
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	151	380	744	2 247	1 982

## BOZOR SHARHI

### UCI INDEKSI

Oy yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 2,18 foizga pasayib, 640,87 punkt darajasida yopildi.

2025-yil yanvar oyidagi UCI indeksi grafigi



### OBLIGATSIYALAR BOZORI

Korporativ obligatsiyalar bozorida savdolar hajmi 3,51 mlrd so'mni (270,59 ming dollar) tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 2,72 mlrd so'mga yoki 347,87 foizga oshdi. O'rtacha kunlik savdo hajmi 159,32 mln so'mni, o'rtacha kunlik bitimlar soni 14 tani tashkil etdi. Oy yakuniga ko'ra, birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan obligatsiyalarning bozor qiymati 817,26 mlrd so'mni (63,07 mln dollar) tashkil etdi.

#### Obligatsiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari

		2021	2022	2023	2024	2025
Savdo hajmi	mln so'm	-	99	361	783	3 505
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	-	5	17	36	159
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	mln so'm	-	99	24	12	11
Bitimlar soni	dona	-	1	15	67	305
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	-	0,1	0,7	3	14

## BOZOR SHARHI

### LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI

Oy yakunida Birjaning listingdan tashqari savdo maydonchasida 6 312 ta bitim tuzildi, bu o'tgan yilga nisbatan 9,25% ga kam. Umumiy hajm 461,6 milliard so'mni (35,6 million dollar) tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 11 231 foizga ko'p. 80 ta emitentning qimmatli qog'ozlari bitimlar obyekt bo'ldi.